



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иктисодиёт - баркарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини худудий ташкил этиш ва ихтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

5. Налоговый кодекс Республики Узбекистан от 30.12.2019 №ЗРУ-599. <https://lex.uz/ru/docs/4674893>
6. Национальный стандарт бухгалтерского учёта Республики Узбекистан №1 «Учётная политика и финансовая отчётность». <https://lex.uz/acts/556789>
7. Национальный стандарт бухгалтерского учёта Республики Узбекистан №21 «План счетов бухгалтерского учёта хозяйствующих субъектов». <https://lex.uz/ru/docs/7282759>
8. Абдуллаева Ш.З. Молиявий ҳисоб: дарслик. - Т.: Иқтисодиёт, 2020. - 344 б.
9. Бланк И.А. Управление финансами предприятия. - Киев: Эльга, 2004. - 778 с.
10. Ковалёв В.В. Финансовый менеджмент: теория и практика. 3-е изд. - М.: Проспект, 2015. - 1104 с.
11. Рашидов Б.Т. Корхона молияси: ўқув қўлланма. - Т.: ТДИУ, 2019. - 296 б.
12. Хасанов Б.А., Каримов Б.Н. Бухгалтерский учёт: учебник. - Т.: ТДИУ, 2018. - 380 с.
13. Van Horne J.C., Wachowicz J.M. Fundamentals of Financial Management. 13th ed. - Pearson Education, 2008. - 760 p.
14. Агентство по статистике Республики Узбекистан. - <https://stat.uz>

UDK: 338.46:005.93:004.77

**RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA
BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY
MEKANIZMLARI**

**ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ
ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ В СФЕРЕ УСЛУГ НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ
ПЛАТФОРМ.**

**ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR INCREASING
MANAGEMENT EFFICIENCY IN SERVICE ENTERPRISES BASED ON DIGITAL
PLATFORMS**

Zayavitdinova Nafisa Muxammadovna

Buxoro davlat universiteti, Marketing va menejment kafedrası dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda raqamli platformalarning boshqaruv jarayonlariga ta’siri, boshqaruv samaradorligini belgilovchi omillar hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida ichki jarayonlarni integratsiyalash, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish, natijadorlik ko‘rsatkichlarini qo‘llash va mijozga yo‘naltirilgan boshqaruvni kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot yakunida amaliy ahamiyatga ega ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli platforma, xizmat ko‘rsatish korxonasi, boshqaruv samaradorligi, raqamli transformatsiya, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, CRM, ERP, KPI, mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv.

В статье исследуются организационно-экономические механизмы повышения эффективности управления на предприятиях сферы услуг на основе цифровых платформ. Проанализировано влияние цифровых платформ на управленческие процессы, систематизированы факторы, определяющие эффективность управления, а также раскрыты направления их совершенствования. Обоснована необходимость интеграции внутренних

процессов, развития цифровой инфраструктуры, повышения цифровых компетенций персонала, внедрения показателей результативности и усиления клиентоориентированной модели управления. В результате исследования разработаны научно-практические рекомендации, имеющие прикладное значение для предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: цифровая платформа, предприятие сферы услуг, эффективность управления, цифровая трансформация, организационно-экономический механизм, CRM, ERP, KPI, клиентоориентированное управление.

This article examines the organizational and economic mechanisms for improving management efficiency in service enterprises based on digital platforms. The paper analyzes the influence of digital platforms on management processes, systematizes the factors determining management efficiency, and identifies the main directions for improvement. It substantiates the need to integrate internal processes, develop digital infrastructure, strengthen employees' digital competencies, introduce performance indicators, and reinforce a customer-oriented management model. As a result, scientific and practical recommendations of direct relevance for service enterprises are proposed.

Keywords: digital platform, service enterprise, management efficiency, digital transformation, organizational and economic mechanism, CRM, ERP, KPI, customer-oriented management.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqarish masalasi yangi mazmun kasb etmoqda. Bozor talabi va iste'molchi kutishlarining tez o'zgarishi, raqobatning kuchayishi hamda xizmat sifati va tezkorlikka bo'lgan ehtiyoj boshqaruvni yanada moslashuvchan tashkil etishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida maydonga chiqmoqda.

Raqamli platformalar korxona faoliyatining turli bo'g'inlarini yagona axborot makoniga birlashtirish imkonini beradi. Ular yordamida buyurtmalarni qabul qilish, mijozlar bilan ishlash, moliyaviy operatsiyalarni nazorat qilish, xizmat sifati monitoringini yuritish va boshqaruv qarorlarini tayyorlash jarayonlari soddalashadi. Natijada boshqaruvda shaffoflik ortadi, axborot oqimlari tezlashadi va resurslardan foydalanish samaradorligi yaxshilanadi.

O'zbekistonda ham xizmatlar sohasining iqtisodiyotdagi ulushi ortib bormoqda. 2025-yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada oshgani ushbu tarmoqning iqtisodiy ahamiyati kuchayib borayotganini ko'rsatadi [7]. Shu bilan birga, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish uchun muhim normativ asos yaratdi [4].

Mazkur maqolaning maqsadi xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli platformalar asosida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish va ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Raqamli transformatsiya masalasi zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. G. Vial raqamli transformatsiyani korxona faoliyati, boshqaruv usullari va qiymat yaratish jarayonlarining raqamli texnologiyalar ta'sirida qayta shakllanishi sifatida talqin qiladi [1]. Bu yondashuv transformatsiyani oddiy texnik yangilanish emas, balki strategik o'zgarish sifatida ko'rsatadi.

P. Verhoef va hammualliflar raqamli transformatsiya korxonaning biznes modeli, iste'molchi bilan ishlash uslubi va operatsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [11]. A. Bharadwaj va hammualliflar esa raqamli biznes strategiyasini zamonaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi sifatida asoslaydi [2]. K.C. Laudon va J.P. Laudon axborot tizimlari boshqaruv qarorlarini ma'lumotlar asosida qabul qilishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi [5].

OECD tadqiqotlarida raqamli platformalar iqtisodiy aloqalarni tezlashtiruvchi, tranzaksiya xarajatlarini kamaytiruvchi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiruvchi vosita sifatida baholanadi [6]. Warner va Wäger esa raqamli transformatsiyada korxonaning moslashuvchanligi va dinamik imkoniyatlari muhim ekanini qayd etadi [12].

Mahalliy adabiyotlarda ham raqamli iqtisodiyot va xizmatlar sohasida boshqaruv masalalari ko'rib chiqilgan. S.S. G'ulomov raqamli iqtisodiyotning shakllanishi boshqaruvning yangi usullarini yuzaga keltirishini ta'kidlaydi [3]. O.T. Turonov xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning

iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilgan [9]. Strategik marketingga oid manbalarda esa mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv va bozor talabiga moslashuvchanlik masalalari yoritilgan [13].

Mavjud adabiyotlar xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqamli platformalar asosida boshqaruv samaradorligini oshirish masalasini to‘liq ochib bermaydi. Shu sababli mazkur tadqiqot ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuv taklif etishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotda tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tahlil va sintez yordamida raqamli platformalar, boshqaruv samaradorligi va xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganildi. Qiyosiy tahlil an‘anaviy boshqaruv modeli bilan raqamli platformalar asosidagi boshqaruv modeli o‘rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini berdi.

Tizimli yondashuv asosida xizmat ko‘rsatish korxonasining boshqaruv faoliyati o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv boshqaruv samaradorligini tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va inson omillarining uyg‘unligi orqali baholash imkonini berdi.

Mantiqiy umumlashtirish usuli yordamida boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar guruhlashtirishdi, baholash ko‘rsatkichlari shakllantirildi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqotning axborot bazasini normativ-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar hamda rasmiy statistik ma’lumotlar tashkil etdi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalar xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishda uchta asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, ular axborot oqimlarini tezlashtiradi. Ikkinchidan, operatsion jarayonlarni avtomatlashtiradi. Uchinchidan, mijozga yo‘naltirilgan boshqaruvni kuchaytiradi.

Boshqaruv samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar besh guruhga ajratildi: tashkiliy, iqtisodiy, texnologik, inson kapitali va bozor omillari. Tashkiliy omillar boshqaruv tuzilmasi, vakolat va javobgarlik taqsimoti hamda bo‘g‘imlararo muvofiqlikni ifodalaydi. Iqtisodiy omillar moliyaviy resurslar, xarajatlar darajasi va investitsiya imkoniyatlari bilan bog‘liq. Texnologik omillar raqamli infratuzilma, dasturiy ta’minot sifati va axborot xavfsizligini qamrab oladi. Inson kapitali omillari xodimlarning malakasi va raqamli savodxonligini ifodalaydi. Bozor omillari esa mijozlar talabi va raqobat muhitidagi o‘zgarishlarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijasida boshqaruv samaradorligini baholash uchun ko‘rsatkichlar tizimi taklif etildi. Iqtisodiy ko‘rsatkichlarga foyda, rentabellik va xarajatlarning qisqarishi; tashkiliy ko‘rsatkichlarga qaror qabul qilish tezligi va ichki axborot almashinuvi sifati; operatsion ko‘rsatkichlarga buyurtmani bajarish muddati, xizmat ko‘rsatish tezligi va xodimlar unumdorligi; sifat ko‘rsatkichlariga mijozlar qoniqishi, takroriy murojaatlar va shikoyatlar soni; raqamli ko‘rsatkichlarga esa avtomatlashtirilgan jarayonlar ulushi, platforma orqali bajarilgan operatsiyalar hajmi va CRM/ERP tizimlaridan foydalanish darajasi kiritildi.

Shu asosda boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ishlab chiqildi. Mazkur mexanizm quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. boshqaruv jarayonlarini yagona platforma asosida integratsiyalash;
2. vakolat va javobgarlikni qayta ko‘rib chiqish;
3. raqamli infratuzilmani rivojlantirish;
4. xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish;
5. natijaga asoslangan KPI tizimini joriy etish;
6. mijozga yo‘naltirilgan boshqaruvni kuchaytirish;
7. analitik boshqaruv vositalaridan foydalanish.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu mexanizm xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruvning tezkorligi, shaffofligi va natijadorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Olib borilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli platformalar xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim vositasidir. Ular axborot oqimlarini tezlashtiradi, operatsion jarayonlarni soddalashtiradi, resurslardan foydalanishni yaxshilaydi va mijozga yo‘naltirilgan boshqaruvni kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshqaruv samaradorligini oshirish faqat texnologik vositani joriy etish bilan emas, balki tashkiliy tuzilma, iqtisodiy rag‘batlantirish, kadrlar salohiyati va analitik boshqaruvni takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

Shundan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqamli transformatsiya bo‘yicha alohida strategik dastur ishlab chiqish zarur.

Ikkinchidan, korxonaning asosiy boshqaruv funksiyalarini yagona integratsiyalashgan platforma asosida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirish, amaliy seminar va treninglarni yo‘lga qo‘yish lozim.

To‘rtinchidan, boshqaruv samaradorligini baholashda KPI tizimini qo‘llash va uni raqamli platformalar bilan bog‘lash zarur.

Beshinchidan, mijozga yo‘naltirilgan boshqaruvni kuchaytirish maqsadida CRM tizimlari va elektron buyurtma platformalaridan keng foydalanish kerak.

Oltinchidan, raqamli platformalarning iqtisodiy samaradorligini joriy etishdan oldingi va keyingi holat asosida muntazam baholab borish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqamli platformalar asosida boshqaruv samaradorligini oshirish korxonalarning raqobatbardoshligini mustahkamlash, bozor sharoitlariga moslashuvchanligini kuchaytirish va uzoq muddatli rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vial G. Understanding digital transformation: A review and a research agenda // *Journal of Strategic Information Systems*. 2019. Vol. 28, No. 2. P. 118–144.
2. Bharadwaj A., El Sawy O.A., Pavlou P.A., Venkatraman N. Digital business strategy: Toward a next generation of insights // *MIS Quarterly*. 2013. Vol. 37, No. 2. P. 471–482.
3. G‘ulomov S.S. *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni.
5. Laudon K.C., Laudon J.P. *Management Information Systems: Managing the Digital Firm*. 16th ed. Pearson, 2020.
6. OECD. *Vectors of Digital Transformation*. Paris: OECD Publishing, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. *Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (yillik) bo‘yicha rasmiy ma‘lumotlar*. 2025.
8. Kotler P., Keller K.L. *Marketing Management*. 15th ed. Pearson Education, 2016.
9. Turonov O.T. *Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari*. Toshkent: Fan, 2022.
10. Zayavitdinova N. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida raqamli menejment va sun‘iy intellekt asosida strategik boshqaruvni takomillashtirish // *Muhandislik va iqtisodiyot*. 2026. Vol. 4, No. 3.
11. Verhoef P.C., Broekhuizen T., Bart Y., Bhattacharya A., Dong J.Q., Fabian N., Haenlein M. Digital transformation: A multidisciplinary reflection and research agenda // *Journal of Business Research*. 2021. Vol. 122. P. 889–901.
12. Warner K.S.R., Wäger M. Building dynamic capabilities for digital transformation: An ongoing process of strategic renewal // *Long Range Planning*. 2019. Vol. 52, No. 3. P. 326–349.
13. Qosimova M.S., Yuldashev N.Q., Ergashxo‘jayeva Sh.J. *Strategik marketing*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.